TA'LIMNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Fotima Baxtiyor qizi - GulDU.Biotexnologiya yo'nalishi talabasi
e-mail: fotimaabdullayeva571@gmail.com
Turabekova Dilorom Baxtiyarovna – GulDU Oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishda uning kamchilik va yutuqlari, shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologiya, zamonaviylik, muassasa. pedagog, talaba, HEMIS dasturi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Bu esa insonlarni zamon bilan xamnafas, ilg'or xorijiy ta'lim texnologiyalaridan bohabar bo'lib ta'lim olishga undaydi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibining asosiy tarkibiy qismlaridan biri - sifatli ta'lim ekanligini aytib o'tishimiz joizdir. Bu barqaror rivojlanish barcha uchun teng bo'lgan sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar esa bu maqsadga erishish uchun muhim vosita sanaladi. Raqamli texnologiya ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda sohaga yangiliklarni olib kirish uchun muhim yo'ldir. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

Ta'limda raqamli aloqa va tarmoq 1980-yillarning o'rtalarida boshlangan. Ta'lim muassasalari axborot olish uchun kompyuter tarmog'idan foydalangan holda masofaviy o'qitish kurslarini taklif qilish orqali yangi vositadan foydalanishni boshlangan. Elektronikga asoslangan ta'limda dastlabki elektron ta'lim tizimlari ko'pincha avtokratik o'qitish uslublarini takrorlaydi, bunda elektron ta'lim tizimining roli keyinchalik yanada rivojlandi.

Bugungi kunda raqamli texnologiya va sun'iy intellektlar hayotning barcha soxalarida faol qo'llanilmoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisod, bank, xizmat ko'rsatish sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimining ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli

bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi". Bularni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa ta'limda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga katta e'tibor berolmoqda. Jumladan, hozirgi kunda talabalari darslarga tayyorgarlik va mustaqil tadqiqot ishlarini amalga oshirish davomida qog'oz va qalamdan foydalanish o'rniga, har xil turdagi taqdimot va loyihalarni yaratish orqali ta'lim jarayoniga yangiliklar olib kirishlari, og'ir kitoblarni doimiy ravishda o'zlari bilan olib yurmasdan, elektron kitoblardan foydalanishlari mumkin. Ta'lim jarayonida ko'pincha videolar, animatsiyalar va interfaol viktorinalar kabi multimedia elementlaridan foydalanish, bu boradagi bilimlarni sifatli tushunish darajasini kuchaytiradi. Bu orqali ular qulaylikka erishishlari va oz vaqt davomida ko'plab bilimlarni egallashlari mumkin.

Raqamli ta'limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytirish imkoniyatlariga egadir.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarning dars mashg'ulotlarga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarini rivojlaniga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS- Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv va statistika» kabi axborot tizimlarini o'z ichiga oladi. Bu dastur o'qituvchilar va talabalar o'rtasida shaffoflikni ta'minlash, qog'ozbozlikni kamaytirish, talabaning fandan to'plagan balini nazorat qilgan holda fanlarda qatnashish darajasini nazorat qilishi, mustaqil topshiriqlarni o'qituvchining bo'sh vaqtini kutmasdan platformaga o'z vaqtida topshirish va bir qancha imkoniyatlarnini beradi.

Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etishdan maqsad:

- OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;

- oliy ta'lim tizimida byurokratik to‘siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;

- OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o‘rtasida uzviylikni ta'minlash;

- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;

- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish va bir qancha maqsadlarga erishish hisoblanadi.

Talabalarni elektron darsliklardan, o‘quv qo‘llanmasidan istalgan vaqtda, istalgan joyda platformalardan bemalol foydalanishi, ularni bo‘sh vaqtlarda mobil aloqa vositasi yoki noutbuklarda bemalol dars tayyorlashlari uchun qulaydir. Bu esa bitta qurilmada bir qancha darsliklarni olib yurishlari, og‘ir kitoblarni olib yurishning jismoniy yukini kamaytirishi mumkin. Ko‘p hollarda elektron darsliklar bosma kitoblardan arzonroq bo‘lib, uzoq muddatga talabalar pulini tejashini aytib o‘tish joizdir. Elektron darsliklardan keng miqyosida foydalanish ekologik tomondan ham ortiqcha sarf-xarajatni kamaytiradi. Ya'ni qog‘oz olish uchun daraxtlardan foydalanishni kamaytirish orqali tabiatni saqlashga erishiladi.

Tashkil etilgan Zoom platformasi orqali talabalar dunyoning turli mamlakatlaridagi muassasalar tomonidan taqdim etiladigan darslarga yozilishlari mumkin va bu ularning ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu turdagi o‘qitish uslublarining barchasi bilim saviyasini yanada orttirishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi talabalarni onlayn forumlar, video kanferensiyalar va guruh loyihalarida maskan, makon tanlamasdan qatnashish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, raqamli darsliklar va masofaviy Zoom platformasi orqali ta'lim olish moslashuvchanlik, foydalanish imkoniyati va turli xil o‘rganish tajribalarini taklif qiladi, bu esa talabalarga ta'lim olish borasida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta'limda raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos muammolari ham mavjud. Ta'lim texnologiyasi, ayniqsa, amalga oshirish va qo‘llashda qiyinchiliklardan xoli emas. Haddan tashqari ko‘p foydalanilgan ekran vaqti, o‘qituvchi va talabaning texnologiyadan foydalanish samaradorligini yaxshilasada, bir tomondan sog‘liq bilan bog‘liq kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Lekin masalaning shu tomoni ham borki, talabalar elektron darsliklardan foydalanib, kutubxonaga bo‘lgan qiziqishlari kamayishi kuzatiladi. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, ta'lim jarayonini raqamlashtirishda yo‘l qo‘yilayotgan ayrim kamchiliklar aniqlandi. Xususan, o‘quvchilarning ta'lim olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emasligi tasdiqlanadi. Aniqlik kiritilishicha, raqamlashtirishning past darajasi metodik ta'minotning yetarli emasligi va alohida didaktik vaziyatlarda bunday texnologiyalardan foydalanish yo‘llarining noto‘g‘ri tavsiflangani bilan bog‘liq.

Xulosa sifatida aytish mumkunki, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish, ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishni yuklaydi. Bunda pedagog talabalarni qiziqtirgan savollariga to'liq javob bera olishi uchun ham izlanishini taqazo etadi. Bu borada talaba ham o'qituvchi ham ta'lim olishga intilishi ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasi. 2020 y.

2. Norboeva N. Erkinovna, Khashimova D. Pakhritdinovna. The role of the digital economy in the development of information and communication technologies. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (3), 25-31.

3. G'afforov F.H. International School Of FinancE Technology and Science 2022. Ta'lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish. 94 b.

4. Mirzayev A. O'. Academic Research in Educational Sciences. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari. 2021. 1047-1049 b.